

“ALPOMISH” DOSTONI TARJIMASIDA MILLIYLIKNI SAQLASH MASALASI

Xushvaqtova Barchinoy Olim qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Tarjima
nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi*

barchinoyxushvaqtoval@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq eposi “Alpomish” dostoni tarjimasida milliy so‘zlarning ifodalanish usullari, ularning semantik va madaniy xususiyatlarini tarjimada saqlash masalalari tahlil qilinadi. Milliy realiyalarni ifoda etishning asosiy usullari – transliteratsiya, ekvivalent, izohli tarjima hamda transkripsiya usullari misollar yordamida ko‘rsatib beriladi. bundan tashqari tarjimon nima uchun aynan shu so‘zlar tanlanganligi aniq yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: milliy so‘z, urf-odat, madaniyat, realiya, ekvivalent, transliteratsiya, transkripsiya, milliy ruh

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining boy og‘zaki ijod namunalaridan biri bo‘lib, u nafaqat o‘zbek xalqining milliy o‘zligini, balki turkiy xalqlarning umumiy ma’naviy merosini ham o‘zida mujassam etadi. Asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib, avlodlar xotirasida sayqal topgan ushbu doston xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini, orzu-umidlari hamda qahramonlik idealini aks ettiradi. “Alpomish”ning turli tillarga tarjima qilinishi dostonidagi ko‘plab badiiy tasvir vositalari, milliy urf-odatlariga oid atamalar hamda o‘zbek xalqiga xos madaniy konnotatsiyalarni boshqa madaniyat vakillariga aniq va tushunarli tarzda yetkazish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois, doston tarjimasida milliy so‘z va tushunchalarni adekvat ifoda qilish tarjimonlar oldidagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tarjimon asliyat ruhiyati, milliy mentaliteti, qadriyatlariga jiddiy e’tibor berib xorijiy o‘quvchiga tushunarli tarzda yetkaza olishi, buning uchun esa mutarjim ham asliyat, ham tarjima tili xalqlari tarixi, madaniyati va urf-odatlarini, o‘sha hududga xos bo‘lgan lahja va shevalarni chuqur o‘rganmog‘i lozim. Chunki mutarjimlar faqat tillar o‘rtasidagi vositachilar emas, madaniyatlararo ko‘prik hamdir. Masalan, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi shevalarida otaning akasini “amaki” deb emas, “bobo” deb atashadi. “Alpomish” dostonida Boybo‘ri Boysarining akasi, shuning uchun ham Boysarining qizi Oybarchin uchun Boybo‘ri amaki, ammo shevada Oybarchin amakisiga “bobo” deb murojaat qiladi. Tarjimada bu ikki xil qarindoshlik atamalarini noto‘g‘ri o‘girilishi kontekst mazmunini

tushunarsiz qilib qo‘yishi mumkin edi. “Alpomish” dostonini ingliz tiliga tarjima qilgan tarjimon Qosimboy Mamurov bu muammoni eng oddiy usulda bartaraf etgan.

Asliyat:

“Biy boboma bul xabarni beringlar,
Katta-kichik hamma duo qilinglar,
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam,
Qalmoqning zulmidan yig‘ladi enam.”

Tarjima:

“To my uncle, their leader, this bad news tell:
There’s a threat to me, as a Kalmyk’s wife, as well
I don’t wish here in gaol to fade away.
Mother is crying, finds no comfort today.”

Ko‘rinib turibdiki, asliyatdagi “bobo” so‘zi tarjimada “grandfather”, “granddad” yoki “grandpa”(bobo) deb emas, “uncle”(amaki) tarzida tarjima qilingan va ekvivalent tarjimaga erishilgan. Bu bilan xorijiy o‘quvchida doston qahramonlari o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan mavhumlikning oldi olingan.

Ba’zi tarjimonlar realiyalarga mos ekvivalent topib tarjima qilishga urinadilar va bu tarjimashunoslar e’tiroziga sabab bo‘ladi. Sababi, bir xalqqa xos realiyalarga tarjima tilida to‘liq mos keluvchi so‘zlar bo‘lishi kamdan kam uchraydigan holat hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday holatlarda tarjimon transliteratsiya va transkripsiya usulidan foydalangani ma’qul. Buni quyida keltirilgan misolda ham ko‘rish mumkin.

Asliyat:

“Qizu xotin borayotir,
Yo‘lda baqan solayik, deb,
To‘ppi, ro‘mol olayik, deb.
Shunday bo‘lib odam ketdi,”

Tarjima:

“Girls and women came tracing.
Let’s block the road with rope, said she,
Let’s get duppi and rumol, said she,
Thus, people had gone by crowds,”

Bu ikkita misolda ham realiyalar transliteratsiya usulida tarjimaga o‘tkazilgan va izoh berib tarjima qilingan. Dostonning bu parchalarida keltirilgan “duppi”,

realiyasi havolaga olinib, “a head wear, scull cap”, “ro‘mol” realiyasi esa “a fabric head wear for women” tarzida izoh berib o‘tilgan. Bu o‘rinda tarjima muqobili sifatida ona tili ingliz bo‘lgan davlatlarda “do‘ppi”, “ro‘mol” realiyalariga qisman ekvivalent bo‘la oladigan

soʻzlardan birining ishlatilishi (masalan: pope, scullcap, snood) asar oʻquvchisida tushunmovchilik keltirib chiqargan boʻlar edi. Tarjima jarayonida uchragan muammoning bu tarzda izoh keltirib tarjima qilinishi dostonni barcha uchun tushunarli qilgan va milliylik saqlanib qolgan.

Milliy realiyalarni tarjima qilishda bir xil yondashuv qoʻllash mumkin emas. Qarindoshlik atamalari kabi mazmunga sezgir birliklar ekvivalent tarjima orqali toʻgʻri ifodalanishi maqsadga muvofiq boʻlsa, milliy buyumlar, kiyim-kechak va madaniy tushunchalarga oid realiyalar transliteratsiya va izoh bilan berilganda yanada aniqroq va milliylikni saqlovchi natijalarga erishiladi. Q.Mamurovning tarjimasida bu ikki strategiyaning muvozanatli qoʻllanishi dostonning mazmuniy aniqligi va milliy ruhini chet tilida ham samarali aks ettirganini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “ALPOMISH” Uzbek heroic epos. (translator) K.Mamurov. – Tashkent, 2019. –. 152 p.
2. Nida E. Taber.Ch.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden, 1969. 220 p.
3. Mamarasulova, Gulnoz Abdulqosimovna. "THE ROLE OF EASTERN LITERATURE IN ENGLISH ROMANTICISM: A CROSS-CULTURAL INFLUENCE." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 6.02 (2025): 187-192
4. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 384 б.
5. Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Ёўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – 400 б.